

## Ilg'or Pedagogik Tajribalarni O'rganish - Boshlang'ich Sinf O'qituvchisi Mahoratining Shakllanishining Asosiy Bosqichi

*Raximberdiyeva Nasiba Yuldashevna<sup>1</sup>, Rasulova Nargiza Kuyliyevna<sup>2</sup>*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchisi mahoratining shakllanishida ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish muhim ekanligi haqida ma'lumotlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Ustoz, tajribalar, pedagogik mahorat, quyosh, vazifalar, pedagogika, bola tarbiyasi, pedagogik qobiliyat, ijodkor, o'qish, o'qitish.

O'qituvchi-ustozning asosiy vazifalari: ta'lim berish, o'quvchilarni har tomonlama kamol toptirish, tarbiyalash. O'qituvchi haqida har qancha gapirsak, uni har qancha madh etsak-da oz. Negaki ilk bora qo'limizga qalam tutqazib, alifbodan saboq bergan ham ana shu ulug' zotdir. O'qituvchi o'quvchiga nafaqat ta'lim beradi, uni kamol toptirish uchun qo'lidan kelgan barcha ishlarni qiladi, tarbiyani ham dars mobaynida teng olib boradi.

O'qituvchining quyoshga o'xshatish mumkin. Chunki ustozlar ham quyosh singari o'z ziyosi bilan barchani va butun koinotni munavvar etadi, hammani qalbida ilm chirog'ini yoqadi.

O'qituvchi-ustozni vazifasini quyidagi to'rt qator she'r orqali tushunib olish ham mumkin:

Sizning ta'limingiz olmagan kim bor,

Sizku yuraklarda ilm ziyo yoqqan.

Olim-mi, shoirmi yoki san'atkor,

Ilk bor siz tomon ustoz deb boqqan.

O'zini fidokorona mehnati bilan yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash sifatini oshirishib katta xissa qo'shayotgan ijodkor o'qituvchilar soni yil sayin ortib bormoqda. Ayniqsa islohotlar davrida bunday murabbiylar el-yurtga tanilmoqda.

O'qituvchilik kasbi sharafligina, lekin juda murakkab kasb. Yaxshi o'qituvchi bo'lish uchun pedagogika nazariyasini egallashni o'zigina yetarli emas. Chunki pedagogik nazariyada bolalarni o'qitish va tarbiyalash haqida umumiy qonun-qoidalari umumlashirilgan usullarda bayon etiladi. O'qituvchilarni yosh individual xususiyatlarini etiborga olish ta'kidlanadi. Maktab xayoti, amaliy pedagogik jarayon esa juda xilma xildir. Pedagogika nazariyalariga mos keladigan va kelmaydigan vazifalar uchrab turadi. Bu esa o'qituvchidan keng bilimdonlikni, puxta amaliy tayyorgarlik, yuksak pedagogik mahorat, ijodkorlikni talab qiladi. Shuning uchun ham mustaqil O'zbekistonimizning umumiy ta'lim maktabida ishlaydigan o'qituvchilariga turli talablar qo'yilmoqda.

- pedagogik qobiliyatga ega, ijodkor, ishbilarmon;
- milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlarini, dunyoviy bilimlarini mukammal egallagan, ma'naviy barkamol;
- O'zbekistonning mustaqil davlatligiga va taraqqiyoti hali yuksalishiga ishongan, vatanparvarlik burchini to'g'ri anglagan, e'tiqodli fuqaro;
- ixtisosga doir bilimlarni, psixologik va pedagogik bilim va mahoratga mukammal ega bo'lgan.

<sup>1</sup> Qashqadaryo viloyati, Nishon tumani, 4-umumiy o'rta ta'lim maktabi 1- toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi

<sup>2</sup> Qashqadaryo viloyati, Koson tumani 95-umumiy o'rta ta'lim maktabi oliy toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi



Xalqimizda: «Ustoz otangdek ulug'»-degan gaplar bejiz aytilmagan. Shoxmi, gadomi, olimmi, dehqonmi hamma-hammasi ustozlar qo'lida ta'lim oladi.

Biror kasbning ustasi bo'lish uchun kishida tabiiy qobiliyat, ma'lum jismoniy va ruhiy xislat jo bo'lishi zarur. O'qituvchilik kasbini egallash uchun avvalo bolalarni sevish, ularni tushunish, harakterlarini bilish zarur. O'qituvchi bu narsalardan tashqari izlanuvchan, o'z ustida ishlaydigan, ijodkor bo'lishi kerak, chunki o'quvchilarga ta'limni sodda fikrlar orqali yetkazish kerak.

O'quv materialini o'quvchilarga tushunarli qilib bayon eta olishi, o'quvchilarda mustaqil fikrlashga qiziqish uygotish uchun, darsni qanday tushuntirishni ijod qilib yaratadi.

O'qituvchi zarur hollarda o'quv materialini o'zgartirishi, qiyin narsalarni oson, murakkab narsani oddiy qilib tushuntirishi kerak. Buning uchun o'qituvchi izlanishi qanday usullardan foydalansa bo'lishini aniqlab olishi lozim. Darsni bir xil usulda olib borilishi bolalarni zeriktirib qo'yishi mumkin. Shuning uchun turli ko'rgazmali qurollar, turli o'yinlar bilan dars uslubini o'zgartirish kerak.

Pedagogik faoliyat o'z mohiyatiga ko'ra ijodiy harakterga ega. Ma'lumki, inson oldida biror muammo turgandagina ijodkorlikka ehtiyoj tugiladi. O'qituvchining faoliyati ana shundaydir.

Pedagogik ijodkorlik manbai – bu pedagogik tajribadir. Pedagogik tajriba muammoli vaziyatlarga juda boydir. Ilg'or pedagogik tajriba deganda biz o'qituvchining o'z pedagogik vazifasiga ijodiy yondashishni, o'quvchilarning ta'lim tarbiyasida yangi samarali yo'l va vositalarni qidirib topishni tushunamiz.

Ilg'or pedagogik tajriba o'qituvchi tomonidan qo'llanadigan ish shakli va usulida, uslub va vositalaridir. Ular vositasida o'quv-tarbiyaviy ishlarda eng yuqori natijalarga erishadi. Ilg'or pedagogik tajribani o'rganish unga asoslanib yangi pedagogik xodisa va qonuniyatlarini ochish o'quv-tarbiya jarayoniga yaxshi, sifatli o'zgarishlar kiritadi, o'quvchilarning bilim faoliyatini boshqarish yangi ko'rinishdagi o'quv jarayonini modellashtirish muammolarini yechishga sabab bo'ladi. Ijodiy ishlaydigan o'qituvchi faqatgina bolalarni muvoffaqiyatli o'qitish va tarbiyalash, ilg'or o'qituvchilar ish tajribalarini o'rganish bilangina cheklanib qolmay, tadqiqotchilik ko'nikma va malakalariga ham ega bo'lishi zarur.

Hozirgi zamon fan va texnika taraqqiyoti o'qituvchining ijodkor bo'lishini, fanning muhim muammolarini erkin fikrlay olishi, nihoyat o'quvchilarni ham ijodiy fikrlashga ham, tadqiqot ishlariga o'rgata olishini talab qiladi. Shuning uchun o'qituvchi avvalo tadqiqotchilik malakalarini egallashi zarur. O'qituvchi ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish davomida omillarni to'playdi, tahlil qiladi, ular asosida xulosalar chiqaradi.

O'qituvchi fan xulosalaridan o'zining amaliy faoliyatida foydalanishi jarayonida, o'zi turli usullar va metodlardan foydalanadi.

Muvaffaqiyatli ishlash uchun har bir o'qituvchi pedagogik mahoratga ega bo'lishi zarur. Pedagogik mahoratga ega bo'lishi uchun o'z mehnatini sarf qilib katta natijaga erishadi. O'qituvchi mahoratli, o'qituvchi nomini olishi uchun o'z ustida doimo ishlashi kerak. Mahoratli o'qituvchilar darsini kuzatib, o'z darsini unga taqqoslab xulosa chiqarish kerak. Boshlang'ich sinflarga dars berishdan anchagina farq qiladi. O'qituvchi ular uchun taxlid qiladigan ideal, namuna ular nusxa olishga intiladigan axloq soxibi hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi doimo bolalar orasida bo'lib, uning harakatini nazorat qilib boradi, o'z nutqini kuzatadi va shaxsiy xulq odobi bilan bolalarni kollektivdagi o'zaro munosabatlarini to'g'ri bo'lishiga da'vat etadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilar uchun qiziqarli ishlarni tashkilotchisi va ijrochisi rolini bajaradi, chunki o'quvchilar hali ko'p narsa bilmaydi. U sinfdan tashqari rang-barang faoliyati jarayonida mehnatsevarlik, ishda orqada qoluvchilarga yordamga kela olishi namunasini ko'rsatadi.

Agar maktabning boshlang'ich sinflarida bolalar jamoasi bilan olib boriladigan barcha tarbiyaviy ishni o'qituvchi olib borsa, boshqa sinflarga direktor buyrug'i bilan mazkur sinflarda dars beradigan eng tajribali pedagoglar sinf rahbarlari qilib tayinlanadi.

Qobiliyat faoliyati jarayonida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Qobiliyat malaka va uddaburonlik, mashq,



o'qish natijasi hisoblansa, qobiliyatning rivojlanishi uchun esa yana iste'dod, layoqat va zehn, ya'ni inson nerv tizimida anatomo-fiziologik xususiyat bo'lishi ham zarur. Ana shu tabiiy zaminda qobiliyat deb ataluvchi ruhiy xususiyat taraqqiy etadi.

Bilish qobiliyati – fanning tegishli sohalariga oid qobiliyatdir. Bunday qobiliyatga ega bo'lgan o'qituvchi fanini o'quv kursi hajmidagina emas, balki ancha keng va chuqurroq biladi, o'z fani soxasidagi kashfiyotlarini hamisha kuzatib turadi, materialni ipidan ignasigacha biladi, unga nixoyatda qiziqadi, oddiy tadqiqot ishlarini ham bajaradi.

Tushuntira olish qobiliyati – o'quv materialini o'quvchilariga tushunarli qilib bayon eta olishi o'quvchilarda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uygotish qobiliyatidir. O'qituvchi zarur hollarda o'quv materialining o'zgartira olishi, qiyin narsani tushuntira olishi, tushunarli qilib o'quvchilarga yetkaza olishi zarur. O'qituvchi yuqorida ko'rsatilgan qobiliyatlardan tashqari bir qancha ijobiy sifatlariga aniq maqsadni ko'zlash, kamtarlik kabilar bo'lishi kerak.

Ta'lim jarayoni ikki tomonlama bo'lib, unda ikki shaxs – o'qituvchi va o'quvchi bo'ladi. Ular muayyan jarayongagina xos bo'lgan ma'lum munosabatda bo'ladilar. O'qituvchi bilan o'quvchi birbiriga mutlaqo zid rollarni – o'qitish va o'qish rollarini bajaradilar. Ta'lim berish o'quvchilarga bilimlar berish, ularda ko'nikmalar va malakalar hosil qilish, yangi haqiqatlarni ocha olishga qodir bo'lgani jodiy, mantiqiy tafakkur tarbiyalashdir.

O'qish – o'quvchilarning o'zlashtirish, o'zida bilish qobiliyatlari, fikrlash operatsiyalari va harakatlarini hosil qilish jarayonidir.

O'qish – faol bilish jarayoni bo'lib, unda o'quvchining aqliy kuchi, karakterining axloqiy va irodaviy xislatlari, shaxsiy va temperamenti xususiyatlari namoyon bo'ladi va shakllanadi. O'qish jarayonida o'quvchilar o'zlari mustaqil ravishda bilimlar egallashlarida ulardan foydalanish ko'nikmasini mujassamlashtirgan aqliy hamda jismoniy mehnat madaniyatini ham egallaydilar. O'quvchi materialni o'rganishga kirishayotganida hali uning qanaqa material ekanligini bilmaydi. O'rganganidan keyingina u materialni bilib oladi. Shunday qilib, o'qishni bilmaslik va bilish ziddiyatlarining birligidir. Dars berish va o'qish – maktabdagi yagona o'quv-jarayonining ikkita jihatidir. O'quvchilar to'g'risida o'ylamasdan, ularning faolligiga, rivojlanishiga, imkoniyatlariga, bilimi va malakasiga tayanmasdan o'qituvchilik faoliyatini amalga oshirib bo'lmaydi.

Maktabdagi ta'lim bolani ilmiy bilimlar, tushunchalar, qonuniyatlar olamiga olib kiradi. O'quvchi qisqa vaqt mobaynida insoniyat tarixida asrlar davomida o'rganilishi mumkin bo'lgan narsani bilib oladi. Masalan, tilning grammatik shakllari minglab yillar davomida tarkib topadi, o'quvchi esa ularni bir necha yillik o'qish jarayonida o'rganib oladi. Bunday tarzda o'quv faoliyati maktab o'quvchisining aqliy rivojlanishini ancha tezlashtiradi.

Shu kunlarda tug'ilgan bola bundan bir necha asrlar oldin tugilgan boladan printsiptal tarzda farq qilmaydi. Lekin hozirgi bola maktabni tamomlagan paytda zamonaviy ilmiy-texnikaviy taraqqiyotga yaqin bo'lib qoladi hamda bundan bir necha asr oldin yashagan tengqurlaridan printsiptal tarzda farq qiladigan bo'ladi. O'qitish ilmiy bilishdan farq qiladi. O'qishning mohiyati o'quvchining bilim olishidan, o'quv fanlari mazmunini o'zlashtirishdan iboratdir.

Ta'lim berish jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga tushunarli bo'lgan umumiy ta'lim materialidan foydalanadi. Muayyan yoshga xos usullarni va ta'limda eng yaxshi samaralarga erishish imkonini beradigan maktab didaktikasi metodlarini qo'llanadi.

O'qitish – ta'lim berish, kamolga yetkazish va tarbiyalash kabi uchta funktsiyani o'z ichiga oladi:

1. Bilimlarni egallash, o'quv ko'nikmalarini va malakasini shakllantirish jarayonidan iborat.
2. O'quvchilarning aqliy jixatdan rivojlantirilishini o'z ichiga oladi. Bir xil turdagi bilimlar yigindisi aqliy rivojlanishning turlicha darajasiga olib chiqishi mumkin. Bu o'quvchi aqliy kuchi va qobiliyatlarini shakllantirishning dialektik jixatdan murakkab va ziddiyatli jarayon ekanligi sababli ro'y beradi. O'qish o'quvchilar rivojlanishi umumiy darajasini doimiy ravishda oshira borishi shart-rivojlantirish funktsiyasining mohiyati ana shundadir.



3. Tarbiyalash funktsiyasi shundan iboratki, o'quv faoliyati o'quvchini tarbiyalaydi, unda vatanparvarlik, axloqiy fazilatlar, nuqtai nazar, e'tiqod, ideal, estetik tuyg'u, intizomlilik, mehnatsevarlik shakllanadi.

Vazifa shundan iboratki, bolalarda zarur fazilatlarni hosil qilish maqsadida ushbu funktsiyalarni boshqarishga, bolalarning ongiga, hissiyotiga, irodasiga sobitqadamlik bilan sistemali tarzda ta'sir o'tkazishga o'rganish kerak.

O'qitishning ta'lim berish, rivojlantirish va tarbiyalash funktsiyalari amalga oshirilishi natijasida maktab o'quvchisi shaxsini shakllantirish jarayoniga kompleks yondashuviga erishiladi.

Maktab o'quvchilariga ta'lim berish jarayonida albatta, tarbiya ham beriladi. Ta'lim va tarbiya doimo birgalikda, hamjixatlikda olib boriladi. Respublikamizning yosh avlodini kelajakka yeto'q inson qilib shakllantirish eng asosiy vazifadir. Ma'naviy barkamol inson qilib yaratish, har bir pedagogning burchi deb hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Pedagogika. /prof. M.X.Toxtaxodjayevevaning umumiy tahriri ostida.- T.: ''O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati'' nashriyoti, 2010,- 400 b.
2. Mavlonova R. va boshqalar. Pedagogika T.: O'qituvchi. 2010 y.254-263b
3. Xasanboyeva O. va boshq. Pedagogika tarixi.-T.: ''G'.G'ulom, 2004.
4. Sullanova G.A. Pedagogik mahorat. O'quv-metodik qo'llanma. TDPU.T., 2005.
5. Nurullayeva Sh. ''Pedagogik mahorat'' kursidan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish texnologiyasi. Qarshi: Nasaf.- 2011.

